
6-7 avgust kunlari shahrimizda umumxalq hashari o'tkaziladi

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi 31 yilligi bayramini munosib kutib olish maqsadida Farg'ona shahri bo'ylab 1 avgustdan 30 avgustga qadar "Mahalla obodligi - yurt farovonligi" shiori ostida "Dolzarb obodonlashtirish 30 kunlik" oyligi o'tkazilmoqda.

Shu munosabat bilan 6-7 avgust kunlari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq hashari o'tkazilishi belgilangan.

Hashar davomida mahallalar, aholi turar joylari, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, mo'tabar maskanlar, bolalar maydonchalari tartibga keltiriladi. Obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari yanada faol olib boriladi.

Umumxalq hashari davomida har bir xonadon tomoqchalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolarning uy-joylarini yaxshilash va moddiy yordam ko'rsatishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Siz ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq hasharida faol ishtirok eting!

Farg'ona shahar hokimligi.

2022-08-06 17:25:50